

MAKTAB MATEMATIKA DARSLARIDA INNOVATSION YONDASHUV

O.N.Hakimov¹

X.B. Erkinov²

¹ – V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti yetakchi ilmiy
xodimi

f-m,f.d., dotsent - +998 901307949

² - Guliston Davlat Universiteti doktoranti -
xursandbek.erkinov@mail.ru

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10409765>

ARTICLE INFO

Received: 13th December 2023

Accepted: 19th December 2023

Online: 20th December 2023

KEY WORDS

Innovatsiya, pedagog, ko'nikma
va malaka, geometrik shakllar,
perimetr va yuza.

ABSTRACT

Maktab matematika kursi mazmunini, o'rta mahsus ta'lim matematika kursi mazmuni bilan uzluksizlik va uzviylik muammolarini aniqlash hamda bu muammolarni echish maktab matematikasini o'zlashtirish samaradorligini talab darajasini ta'minlaydi. Ushbu maqoladan maqsad maktab matematika darslarida innovatsion yondoshuvga asoslanish orqali matematika o'qitish metodikasini takomillashtirish va ta'limda kutilgan samaradorlikka erishish.

Innovatsiya – ta'limdagi yangilik, yangilanish, ta'lim jarayoniga alohida e'tibor berish, yangi bilimlarni fanlarni integrallashuvchi va sintezlashuviga asoslanib yaratish, ilmiy metodologiyaga asoslanib o'quv jarayoni uchun ta'lim mazmunini qayta qarab chiqish va pedagogik tajribalarga asoslangan holda individual va differensialga yondashish imkoniyatlarini yaratish va undan unumli foydalanish tushuniladi. O'quvchilarning imkoniyati, qobiliyati, qiziqish ehtiyojiga qarab ta'lim mazmuni va uni chuqurlashtirishda imkoniyat yaratish bilan ta'limni shahsga qaratish, ta'limda kiritilgan yangiliklarning dinamik rivojlanuvchanligini ta'minlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Matematika kichik yoshdagi o'quvchilarda yuqori darajada umumlashtirilgan bilimlarni shakllantirish va ularda ma'lum darajada ko'nikma va malaka hosil qilishdan iborat. Bu masalani muvaffaqiyatli hal etilishi uchun matematika o'qitish metodikasida quyidagicha bosqichlarga ajratilishi zarur:

1 bosqich: Yangi o'quv materialini o'rganishga o'quvchini tayyorlash

2 bosqich: Yangi material bilan tanishish

3 bosqich: Bilimlarni mustahkamlash

4 bosqich: Ko'nikma va malakalarni mustahkamlash

Matematika mazmunini o'zlashtirishdagi innovatsion yondoshuvlar


Maktabda matematika o'qitishdagi innovatsion yondoshuvga quyidagi geometriya o'qitishdagi ijodiy topshiriqlar tizimini keltiramiz:




Masalalar echishga oid uslubiy qo'llanmada geometrik mazmundagi masalalarni shakllarni yasashga doir, shakllarni almashtirishga doir, shakllarni topish va ajratishga doir, shakllarni tasniflashga doir, xisoblash harakteridagi masalalarga ajratishgan.

Biz ham geometrik mazmundagi ijodiy topshiriqlarni shu tasnifga asoslangan xolda quyidagi gurularga ajratamiz:

- 1) Geometrik shakllar to'g'risidagi tassavurlarni shakllantirishga doir;
- 2) Geometrik shakllarni almashtirishga doir;
- 3) Shakllarni topish va ajratishga doir;
- 4) Shakllarni tasniflashga doir;
- 5) Xisoblash harakteridagi masala-topshiriqlar.



Xisoblash harakteridagi masala-topshiriq: «Har qaysi to'g'ri to'rtburchakning perimetri va yuzini toping».



Ushbu topshiriqni bajarishda o'quvchi ikki hildagi son: uzunlikni ifodalovchi birlik, yuzani ifodalovchi birliklar ustida amallar bajaradi. Topshiriqni bajaruvchi o'quvchi quyidagicha mulohaza yuritadi: 1-shakl to'g'ri to'rtburchak bo'lib, eni 2, bo'yi 3 birlikni ifodalaydi. Uning perimetrini uch usulda xisoblash mumkin.

- 1-usul: $(2+3) \cdot 2 = 5 \cdot 2 = 10$ (birlik)
- 2-usul: $2 \cdot 2 + 3 \cdot 2 = 4 + 6 = 10$ (birlik)
- 3-usul: $2 + 2 + 3 + 3 = 4 + 6 = 10$ (birlik)



1-shakldagi to'g'ri to'rtburchak yuzini topish uchun eni (2 birlik)ni bo'yi (3 birlik)ga ko'paytiramiz. $S=2 \cdot 3=6$ (kvadrat birlik). Qolgan shakllarning perimetrii va yuzi shunday mulohaza yuritib hisoblanadi

Xulosa

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maktab ta'limi oldidagi vazifalarga mos holda ushbu "Maktab matematika darslarida innovatsion yondoshuv" mavzusidagi maqolada maktab matematika kursi mavzusini o'zlashtirishga oid muammolar va maktab matematika ta'limiga zamonaviy yondoshuv borasida tadqiqotlar olib borildi. Tadqiqotga oid adabiyotlar o'rganib chiqildi. Maktab matematika darslarida innovatsion yondoshuvni amalga oshirish misolida L.V.Zankov prinsiplari asosida 5-6 sinflar matematikasi uchun geometrik mazmundagi ijodiy topshiriqlar tizimi o'rganildi va undan foydalanish usullari joriy qilindi.

References:

1. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar.-T.: Fan, 2000. 128b.
2. Matematik ensiklopediya. -Toshkent: FAN, 2005.
3. Ikromova X.Z. Tabiiy-ilmiy fanlar shakllanishining tarixiy ildizlari. -Toshkent: OPI, 2010.
4. Ziyomuhammadov B., Tojiev M. Pedagogik texnologiya – zamonaviy o'zbek milliy modeli, II- qism / T.: "Лидер Пресс", 2009.
5. Tojiev M. Matematika o'qitish jarayonini loyihalash. O'quv qo'llanma/ T.: "ФАН ВА ТЕХНОЛОГИЯ МАРКАЗИНИНГ БОСМАХОНАСИ", 2013 -160 b.
6. Xaydarova O. Bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim jarayoniga texnologik yondashuvga tayyorlash. Ped.fan.nom. Dissertasiya.-Qarshi: 2004.-159b.
7. Yo'ldoshev J., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent, O'qituvchi, 2004.